

## QO'QON XONLIGINING SHARQIY TURKISTON BILAN SIYOSIY- IQTISODIY ALOQALARI TARIXI

*Hazratqulov Oybek Salimovich*  
*SamDU Tarix fakulteti 4-kurs talabasi*

**Annotatsiya:** Qo'qon xonligining Sharqiy Turkiston bilan siyosiy-iqtisodiy aloqalari tarixi yetarli darajada o'rganilmagan bo'lib, zero bu davrga oid keng manbalar va o'zaro muntazam aloqalar bo'lishiga qaramasdan, o'rganilmaganligi sababi sifatida ikki sotsialistik davlatlar, ya'ni SSSR va Xitoy davlatlarining maqsadlaridan kelib chiqqanligi aniq namoyon bo'ladi. Sababi, bu ikki hudud azaldan bir-biri bilan bo'g'liq tarixga ega bo'lib, bu ularning hududiy qo'shnichilik rishtalaridan tashqari bu hududlarda asrlar osha o'zaro qardosh va dindosh xalqlarining yashashi, ularni bir-birlari bilan yaxshi qo'shnichilik munosabatlarini o'rnatishga sabab bo'lgan edi va bu rishtalarni uzish uchun ikki sotsialistik davlatlar jiddiy kirishgan va ularni ayirib, o'zlarining totalitar rejimida saqlab turishga muvassar bo'lgan edi. Shu sababli bu ikki hududning tarixiy aloqalarini to'laligicha yoritish bugungi tarix fanining zaruratidir.

**Kalit so'zlar:** Qo'qon xonligi, Sharqiy Turkiston, siyosiy-iqtisodiy aloqalar, tarixiy, geografik va etnografik manbalar, tarixshunoslik.

**Аннотация:** История политических и экономических связей Кокандского ханства с Восточным Туркестаном недостаточно изучена, поскольку, несмотря на наличие обширных источников и регулярных взаимоотношений об этом периоде, ясно, что причина ее недостаточной изученности заключается в появляются цели двух социалистических стран, а именно СССР и Китая. Причина в том, что эти два региона издревле имели историю, связанную друг с другом, что, помимо территориально-соседских связей, многовековое существование взаимно братских и религиозных народов в этих регионах, обусловило установление ими добрососедских отношений. отношения друг с другом, и чтобы разорвать эти связи, две социалистические страны серьезно вмешались и сумели лишить их и удержать в своем тоталитарном режиме. Поэтому современной исторической науке необходимо в полной мере осветить исторические связи этих двух регионов.

**Ключевые слова:** Кокандское ханство, Восточный Туркестан, политико-экономические отношения, исторические, географические и этнографические источники, историография.

Mustaqillikka erishgandan so'ng O'zbekistonning haqqoniy va xolisona tarixini yaratish masalasi ko'ndalang turardi. Zero, Sobiq Ittifoq davrida yurtimiz tarixi

biryoqlama yaratilgani, tarixiy haqiqatlardan yiroqligi tarixga nisbatan munosabatni o'zgartirishni taqozo etdi. Birinchi Prezident I.A.Karimovning bir guruh tarixchi olimlar va ommaviy axborot xodimlari bilan uchrashuvidan so'ng uning «Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q» nomli asari chop etildi. Bu asar tarix fani rivojida yangidan-yangi ilmiy yo'nalishlar, tarixga munosabat masalasida yangi qarashlarning paydo bo'lishiga asos bo'ldi. I.A.Karimov o'zbek xalqining tarixiy o'tmishini, uning davlatchiligi tarixini o'rganishda yagona ilmiy konsepsiyaning yo'qligi xususida gapirib, tarixchi olimlarni bu sohaga diqqat-e'tiborini yanada kuchaytirishga chaqirdi. Asarda ta'kidlanishicha, «o'zlikni anglash tarixni bilishdan boshlanadi. Isbot talab bo'lmagan ushbu haqiqat davlat siyosati darajasiga ko'tarilishi zarur». Tarixni yoritishda biryoqlamalikka, subyektiv fikrlarga yo'l qo'ymaslik zarur, «faqat bahs, munozara, tahlil mevasi bo'lgan xulosalargina bizga to'g'ri yo'l ko'rsatadi.

Tadqiqotga jalb etilgan mavzu garchi bugungi kunga qadar alohida fundamental ish sifatida tadqiq etilmagan bo'lsa-da, Qo'qon xonligi va Sharqiy Turkiston o'rtasida o'zaro munosabatlarning ayrim tomonlari yoritilgan tadqiqotlar mavjud. Ularni yoritilgan jihatlari bo'yicha quyidagi to'rt guruhga ajratish mumkin. Birinchi guruhga XIX asrning 70-yillaridan 1917-yilga qadar bo'lgan asarlarni kiritish mumkin. Ikkinchi guruh sovet davri adabiyotlaridan tashkil topgan. Uchinchi guruhga mustaqillik davri ilmiy izlanishlari kirs, to'rtinchi guruh xorijiy tadqiqotchilarning asarlaridan tashkil topgan. Birinchi guruhga mansub adabiyotlar mualliflari jumlasiga ijtimoiy kelib chiqishi, xizmat vazifalari turlicha bo'lgan, XIX asr 70-yillaridan 1917-yilgacha bo'lgan vaqt oralig'ida O'rta Osiyo xonliklari va Sharqiy Turkiston hududlariga kelgan elchi va sayyohlarning ko'rgan va esdaliklari asosida ularning madaniy va iqtisodiy hayot ko'rsatgichlarini aks ettirishga harakat qilganlar. Rossiya imperiyasi harbiy xizmatchilari hisoblangan V.V.Velyaminov-Zernov, P.N.Nebolsin, A.Kun, A.Xoroshxin, V.V.Nalivkin, A.N.Kuropatkin hamda Sharqiy Turkistonga sayohat uyushtirgan M.N.Pevstov, yevropalik sayohatchi va diplomatlar R.Shou, Forsayt, Bellyu va boshqalarni kiritish mumkin.

Shuningdek bu davr Qo'qon xonligi tarixi va uning tashqi aloqalari tarixining ayrim jihatlari o'zida mujassamlashtirgan asarlar ham yaratildi. Ular jumlasiga V.V.Velyamin-Zernovni kiritish mumkin. U o'zining "Исторические известия о Кокандском ханстве от Мухаммад Али до Худаярхана" hamda "Сведения о Кокандском ханстве" asarlari bilan rus tarixshunosligiga Qo'qon xonligi tarixini o'rganishda yangicha qiziqish uyg'otdi. To'g'ri, u xonlik hududiga shaxsan tashrif buyurgan bo'lmasa-da, ammo xonlikdan kelgan savdogarlardan olgan ma'lumotlari asosida tarixiy jarayonlarni tahlil qilib, xonlik tarixiga jiddiy yondashgan.

Ammo muallif o'z asarlarini XIX asr o'rtalaridagi rus hukumatining mustamlakachilik siyosati asosida yozgan. Qo'qon xonligiga doir ko'pgina manbalarni qiyosiy tahlil qilib, "O'rta Osiyoni, jumladan, Qo'qon xonligini o'rganish ruslar uchun

juda muhimdir" degan jumlaning keltiradi. To'g'ri, muallif xonlikning Sharqiy Turkiston bilan savdo aloqalariga qisqacha to'xtalgan bo'lsa-da, uning asarlari rus tarixshunosligida Qo'qon tarixini o'rganishda muhim o'rin tutishdan tashqari, asarlarida xonlikning iqtisodiy ahvoli, ichki va tashqi savdosi, savdo markazlari haqida ko'plab ma'lumotlarni berganligi bois qimmatlidir. Rossiya imperiyasining Sharqiy Turkistonda konsuli bo'lgan A.N.Kuropatkin, N.N.Petrovskiy, N.Kornilov va M.Lastochkinlar hisobotlaridagi ma'lumotlar mavzuni o'rganishda ahamiyatlidir. Yuqorida ismlari keltirilgan va mustamlakachilik g'oyalari targ'ibotchilari bo'lgan mualliflar o'z asarlarida XIX asrda Sharqiy Turkistonning geografiya, o'lka aholisining siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy hayoti xususida ayrim ma'lumotlarni yozib qoldirganlar.

Xususan, ular rus mollari o'lkada sotish va bunda "andijonliklar" deya nom olgan qo'qonlik savdogarlardan foydalanish mumkinligi keltirishadi. Ayniqsa, 1876-1878-yillarda Qashqarda konsul bo'lib ishlagan A.N.Kuropatkinning "Кашгария" deb ataluvchi asarida o'lkadagi xo'jalar qo'zg'olonlari, karvon yo'llari va o'zaro savdo aloqalari haqida qimmatli ma'lumotlar bergan. Sharqshunos olim N.F.Petrovskiy Kuropatkin ma'lumotlarini takrorlasa-da, o'lka tarixi chuqurroq o'rganish maqsadida etnografik tadqiqot olib borgan. Ayniqsa, u o'lkada yashab qolgan Qo'qon fuqarolaridan og'zaki ma'lumotlar va qimmatli qo'lyozmalarni to'plashga muvaffaq bo'ldi. U boshqa mualliflardan farqli ravishda Qo'qon xonligi va Sharqiy Turkiston o'rtasidagi karvon yo'llarini aniqroq tasvirlagan.

Sharqiy Turkistonga sayohat qilgan M.V. Pevstov ham u yerda yashab qolgan qo'qonlik fuqarolar va ularning bu hududdagi ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy hayoti to'g'risida ba'zi tarixiy, geografik va etnografik ma'lumotlarni bergan. Jumladan, 18 yildan beri savdo oqsoqoli bo'lib kelayotgan qo'qonlik Abdusattor, Nasriddin kabi shaxslar haqida ko'pgina ma'lumotlar bergan. Bu davr tadqiqotchilari tomonidan Qo'qon xonligi va Sharqiy Turkiston aloqalari kompleks ravishda o'rganilmagan bo'lib, unda asosan u yoki bu o'lkaning ijtimoiy-siyosiy hayoti haqida qisqacha ma'lumotlar beriladi. Ularning ko'pchiligida Rossiyada ishlab chiqarilgan mollarni bu o'lkalarda sotish uchun karvon yo'llarini o'rganish muhimligi keltiriladi. Ammo bu ikki hududning siyosiy, madaniy va iqtisodiy aloqalari haqida bu adabiyotlarda ma'lumotlar berilmaydi.

Sobiq sovet davrida ham Qo'qon xonligi tarixi bo'yicha bir qancha asarlar nashr etildi. Ammo xonlik tarixi yuqorida keltirganidek, O'zbekiston tarixining boshqa jihatlari kabi kommunistik mafkura tazyiqi ostida sinfiylik nuqtai nazaridan o'rganildi. Bu holat tarixiy voqealarning sohtalashtirilishiga olib keldi. Xususan, Qo'qon xonligi va Sharqiy Turkiston aloqalari tarixi ham sinfiylik nuqtai nazaridan yoritilgan. Ular jumlasiga Sharqiy Turkiston xalqlarining Xitoy (Ching imperiyasi) hukumatiga qarshi xo'jalar boshchiligidagi qo'zg'olonlar yoritilgan asarlarni kiritish mumkin. Sharqiy

Turkiston va O'rta Osiyo xalqlarining o'zaro aloqadorligiga bag'ishlangan ilmiy dissertatsiyalar Toshkent yoki Samarqandda emas, "Markaz"ning buyrug'i bilan Moskva yoki Leningraddagi Sharqshunoslik institutlari Ilmiy Kengashlarida ko'rib chiqilgan va himoyaga tavsiya etilgan. Natijada bu mavzu yuzasidan Toshkentda olib borilgan ko'pgina tadqiqot ishlari yakuniga yetmay qolgan. Ular qatoriga sharqshunos olimlar A.A.Semyonov, E.V.Bunakov, N.Baykoyalarning tadqiqotlarini kiritish mumkin.

XX asrning 50-80-yillarida X. Ziyoyev, R.N. Nabiyev, L. Duman, V.S. Kuznetsov, M. Kutlukov, T.Q. Beysembiyev, V.M. Ploskix, H. Bobobekov, A. Xo'jaev kabi olimlar yozma manbalar ma'lumotlari asosida Qo'qon xonligining turli masalalariga oid tadqiqot ishlari olib borishdi. Sharqiy Turkistondagi 1876-yilgi Jahongirxo'ja qo'zg'alonini tadqiq etgan H.Ziyoyev ko'pgina qo'lyozma manbalar va arxiv hujjatlaridan keng foydalandi. Ilmiy tadqiqot sifatida Moskvada amalga oshirilgan bu tadqiqot Qo'qon xonligi va Xitoy, xususan, Sharqiy Turkiston masalasiga oid dastlabki ilmiy tadqiqot bo'ldi. Qo'qonning so'nggi xoni Xudoyorxonning xo'jaligiga asosiy e'tiborni qaratgan holda, oliy hukmdorning iqtisodiy kuchi, uning manbalarini hujjatli materiallar, yozma manbalar asosida ko'rsatib bergan taniqli olim R.N.Nabiyevning asarida Qo'qon-Qashqar o'rtasidagi savdo va Sharqiy Turkistondagi savdoda "andijonliklar"ning rolini yoritib bergan.

Mustaqillik yillarida Vatan tarixining ko'pgina masalalari qatori O'rta Osiyo xonliklari, xususan, Qo'qon xonligi tashqi siyosatiga bag'ishlangan qator asarlar, maqolalar yaratildi. Jumladan, sharqshunos olimlar B.Ahmedov va A.Aytboyevlarning tadqiqotlarida, O'rta Osiyo va Xitoy munosabatlariga oid maqolalarida Qo'qon xonligi va Sharqiy Turkiston o'rtasidagi siyosiy aloqalarga to'xtalib o'tganlar va bu aloqalarni o'rganish muhimligini ta'kidlab o'tishgan. XX asrda ingliz-amerika tarixshunosligida Buxoro, Xiva va Qo'qon xonliklari tarixi masalalariga bag'ishlangan O.Masaliyevning tadqiqoti inglizabon olimlarning Qo'qon xonligining Xitoy bilan aloqalarida Sharqiy Turkistonning bevosita o'rnini yoritiladi.

Z.Ilhomovning Qo'qon xonligining siyosiy hayotida 1863-1865-yillardagi bosh vaziri Aliquli amirlashkarning tutgan o'rniga bag'ishlangan dissertatsiyasida bu shaxsning Sharqiy Turkistondagi siyosiy vaziyatni doimiy kuzatib borganligini va o'z maslakdoshi Muhammad Yoqubbekning Sharqiy Turkiston tarixida tutgan o'rnini yoritib berishga bag'ishlangan. Qo'qon tarixnavislik maktabi vakillari tomonidan yaratilgan xonlik tarixiga oid asarlarni manbashunoslik nuqtai nazaridan o'rgangan Shodmon Vohidov doktorlik dissertatsiyasida Qo'qon xonligi va Sharqiy Turkiston o'rtasidagi siyosiy aloqalarni ilmiy tahlil etishga imkon beruvchi tarixiy ma'lumotlar aniq keltiriladi. To'rtinchi bo'limga Qo'qon xonligi va Sharqiy Turkiston munosabatlarini o'rganishga o'z hissalarini qo'shgan xorijiy tarixshunoslar asarlari kiritiladi. Jumladan, XX asr 60-yillarida yapon tadqiqotchisi Toro Saguchi "XVIII-

XIX asrlardagi Sharqiy Turkistonning ijtimoiy tarixi" deb nomlangan asarining "Qo'qon xonligining sharqiy savdosi" deb nomlangan bo'limini faqatgina Xitoy hujjatlari asosida yoritgan.

Unda asosan Qo'qon xonligining Sharqiy Turkiston hamda Xitoy bilan 1760-yildan 1820-yilga qadar bo'lgan savdo aloqalari haqida ma'lumot beriladi. Ammo, tadqiqotda kamchiliklar ham uchraydi. U Qo'qon xonligini Xitoy vassali deb ataydi. Bu kabi qo'pol xatolarni xitoylik Lyu Chjisyao, Li Shen kabi tadqiqotchilar ham davom ettirgan. Shunday bo'lsada ularning tadqiqotlarida muhim ma'lumotlar ham uchraydi. Xususan, Pan Chjipenning "Qo'qon xonligi va G'arbiy yurt siyosati" deb nomlangan asarida Qo'qon xoni Muhammad Alixonning Pekingga yuborgan elchisi orqali berilgan maktubi va muhri nusxasi berilgan. Xitoy tarixchilari Lan Gan va Gav Zixularning asari garchi "Qadimgi uyg'urlar tarixi" deb nomlansa-da, unda XVIII-XIX asrlarda Sharqiy Turkistonda kechgan siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar haqida so'z yuritilib, asosan Sharqiy Turkiston va uning asosiy aholisi bo'lgan uyg'urlar haqida so'z yuritilib, Qo'qon va Sharqiy Turkiston munosabatlari, bu davrda siyosiy jarayonlarda muhim o'rin tutgan Jahongirxo'ja (1824-1828) va Yusufxo'ja (1830) qo'zg'olonlari qisqacha yoritilib o'tiladi. Ibrohim Mutaniy boshchiligidagi Sharqiy Turkiston ijtimoiy akademiyasining bir guruh uyg'ur va xitoy tarixchilari tomonidan yaratilgan "Sharqiy Turkistonning qisqacha tarixi"ning ikkinchi bo'limi Qo'qon xonligi va Sharqiy Turkiston o'rtasidagi siyosiy aloqalarga bag'ishlangan. Eng muhimi asarda Qo'qon tarixchilari asarida uchramaydigan Sharqiy Turkistondagi qo'qonliklar faoliyati haqida qimmatli ma'lumotlar berilgan.

### **XULOSA**

Xulosa o'rnida shuni bayon qilmoqchimanki, O'rta Osiyo xonliklari, shu jumladan, Qo'qon xonligi ham har vaqt Sharqiy Turkiston bilan doimiy va har tomonlama faol bo'lgan o'zaro munosabatlarni o'rnatgan. Zero, bu munosabatlarning ildizi qadim davrlarga borib taqalib, bu davrda qo'qonliklar va sharqiy turkistonliklar tomonidan davom ettirilgan va kezi kelganda yanada rivojlantirganlar. Biz ikki tarixiy va qardosh o'lka o'rtasidagi munosabatlarni ham iqtisodiy, ham ijtimoiy, ham siyosiy va madaniy jihatdan yuritilganligini ko'rishimiz mumkindir. Qo'qon xonligining fuqarolari boshqa davlatlarga nisbatan Sharqiy Turkiston va o'z navbatida sharqiy turkistonliklarning Qo'qon bozorlarida savdoda yetakchilik qilishining asosiy sababi sifatida men bu o'lka xalqlarining qadim davrdan bir-biriga bo'lgan do'stligi, qiyin davrda beg'araz ko'magi sifatida bilish mumkin.

Fikrimning dalili sifatida ilmiy maqolada keltirib o'tilgan tarixiy voqealar, ya'ni qardosh uyg'ur xalqining xitoyliklar zulmidan qochib Mazkaziy Osiyoga, xususan, Qo'qon xonligiga kelishi va xonlik aholisi va hukumati tomonidan ular iliq kutib olinib, yashash va hayot kechirishlari uchun barcha huquqlar berilganini va o'z navbatida xuddi shunday yordam va ko'mak Buxoro amiri Nasrullo bosqini davrida



qo'qonliklarga ko'rsatilganligini keltirish o'rinli deb bilaman. Xullas, Qo'qon xonligi tarixi, ayniqsa uning Sharqiy Turkiston bilan bo'lgan o'zaro ko'p tomonlamali munosabatlari tarixini o'rganish, yoritib berish va jamiyatimizga tanishtirish uchun hali tarixchilar oldida anchayin vazifalar mavjuddir. Xonlik tarixida alohida bo'lim hisoblanmish ikki hudud aloqalari nafaqat qo'qonliklar, balki O'rta Osiyoning boshqa xonliklari taraqqiyotida ham muhim bosqich bo'ldi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Buxoroga qo'llanma / Fors tilidan Ismoil Bekjon tarjimasi. - Toshkent. Ma'naviyat. 2007 yil
2. Sin Gaozin kuni. Chuxuandi Shilu. Tokio. Bilim. 1988 yil
3. Badaxshon tarixi. Qo'lda yozilgan matnni suratga olish, kirish, indeks. Nashrga tayyorlagan A.N. Boldirev. Leningrad: Leningrad davlat universiteti nashriyoti, 1959 yil.
4. Ibrohim Murtanzy. Shinjonning qisqacha tarixi. Urumchi. Shinjon-Uyg'ur Fanlar Akademiyasi. 1989 yil
5. Kuznetsov V.S. O'rta Osiyo chegaralarida Qing imperiyasi. Fan. Moskva. 1983 yil.
6. Kuznetsov V.S. 19-asrning 1-yarmida Sinszyandagi Qing hukumatining iqtisodiy siyosati. Moskva. Fan. 1973 yil
7. Qutlukov M. Qing Xitoy va Qo'qon xonligi o'rtasidagi munosabatlar. Moskva. Fan. 1982 yil
8. Kuropatkin A.N. Qashg'ariston. Sankt-Peterburg'. Bosmaxona B.S. Balasheva. 1879
9. Lan Gan. Vof Zihu. Uyg'urlarning qadimiy tarixi. Urumchi. Shinjon xalq nashriyoti. 1984 yil
10. Liu Chjixiao. Uyg'ur tarixi. Pekin. Milliy nashr. 1987 yil
11. Mulla Muhammad Ibrohim Fanahiy. Sharqiy Turkiston tarixi. Toshkent. UzR FA SHI. Ablat Xo'jaev tarjimasi. 2009 yil
12. Muso Sayrami. Tarixiy Hamidiy. Anvar Boyto'ra tayyorladi. Urumchi. Millatlar nashriyoti. 1986 yil
13. Muhammad Latif. Qashqar tarixi. Istanbul; Mechnon, 1886 yil.
14. Muhammad Hakimxon. Muttahab ut-tavoriv. Sh. Vohidov tarjimasi. Yangi asr avlodi. Toshkent. 2010 yil.
15. Muhammad Yahyoxon Xo'qandiy. Xoxandi Latif manotsibi. Tazkira. Fan. Toshkent 2018.
16. Myasnikov V.S., Shepeleva N.V. Qin imperiyasi va Rossiya XVII-XVIII - XX asr oxiri. // Xitoy qo'shni. Moskva: Nauka, 1982 yil.
17. Nalivkin V. Qo'qon xonligining qisqacha tarixi. Qozon. Imperator universitetining bosmaxonasi. 1889 yil
18. Niyoz Karimi. Shinjonning qadimgi karvon yo'llari. Urumchi. Milliy nashriyoti. 1987 yil
19. Nazarov F. Markaziy Osiyoning ayrim xalqlari va yerlari haqida eslatmalar. Sankt-Peterburg. Imperator Fanlar akademiyasi 1821 yil
20. Potanin G.M. 18-asrda Jungriya Buxoriyasi bilan karvon savdosi haqida. Univ. turi (Katkov). Moskva 1868 yil

21. Pan Jiping. 1759-1820 nian Qing yu Haohan di guanxi // Shinjon sheksoi kexuei. Urumchi. Bu Ian. 1985 yil
22. Petrovskiy N.F. Sharqiy Turkiston haqida qisqacha ma'lumot. Olma-Ota. Fan. 1887 yil
23. To'xtiyev I. Tangalar tilga kirganda. - Toshkent, Fan. 1989 yil
24. Timchenko S.V. Xalqlarning Qingga qarshi kurashi. 20-asrning birinchi uchdan birida Sharqiy Turkiston. va Qo'qon xonligi. Olma-Ota. Gulum. 1990 yil
25. Vohidov Sh. XIX-XX asr boshlarida Qo'qon xonligida tarixshunoslikning rivojlanishi. Tarix fanlari doktori dissertatsiyasi. Toshkent. 1998 yil
26. Valixonov Ch.Ch. Besh jildlik asarlar to'plami. Hajmi. 1. - Olma-Ota: Gym, 1984 yil.
27. Valixonov Ch.Ch. Besh jildlik asarlar to'plami. T.2. Olma-Ota. Qozoq Sovet Ensiklopediyasining asosiy nashri. 1984 yil
28. Valixonov Ch.Ch. Bu Xitoyning Nan Lu (Kichik Buxoriy) provinsiyasidagi Oltishara viloyatining oltinchi poytaxti. Olmaota. To'lagay. 1904 yil
29. Velyaminov-Zernov V.V. Qo'qon xonligining ruslar uchun savdo ahamiyati. Moskva. Imperator universitetining bosmaxonasi. 1854 yil
30. Xudoyorxonzoda. Anjum at-Tavorix. Sh. Vohidov tarjimai. Fan va texnologiya. Toshkent. 2014 yil
31. Xo'jaev A. 1864-1878 yillar Xitoy Xalq Respublikasining Jungriya va Sharqiy Turkiston bilan aloqalari. Toshkent. Fan. 1987 yil
32. Xo'jaev A. Buyuk ipak yo'lining munosabatlari va taqdiri. Navro'z. Toshkent. 2018.
33. Xodjaev A. Markaziy Osiyoda Xitoy omili. - Toshkent: Fan, 2007.
34. Yayoi Kavahara. Muhammad Hakimxontaraning "Muttahab ut-tavarix" asari tarixiy manba sifatida // Tarixiy manbashunoslikning dolzarb muammolari. Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. Toshkent, 2001 yil, 25 aprel – Toshkent, 2001 yil
35. Yu.V. Timkovskiy. Bogdan Aslanovning missiyasi vs. Afg'oniston 1764 yil. - "Sovet Sharqshunosligi". Leningrad. 1958 yil
36. Zayniddin Muhammad Imin Sadr Koshg'ariy. Ish ul-futuh. Omonbek Jalilov tarjimai. Qo'qon. Fan. 2017 yil.
37. Mirzi Shams Buxoriy qaydlari. Buxoro, Xo'qon va Qashg'ardagi ba'zi voqealar haqida / Matndagi nashr, tarjima va ilovalar bilan V.V. Grigoryeva. - Qozon: Universitet bosmaxonasi, 1861 yil
38. Sherali Qo'ldoshev. Qo'qon xonligi va Xitoy (Sin imperiyasi) o'rtasida diplomatik munosabatlar. ToshDSHI. Toshkent-2019.
39. Sherali Qo'ldoshev. Qo'qon xonligi va Sharqiy Turkiston o'rtasidagi siyosiy, iqtisodiy va madaniy aloqalar. Toshkent. Akademik nashr. 2021 yil.